

O‘TKIR RAHMAT SHE’RLARIDA VATAN MADHI

Feruzabonu MA’RUFALIYEVA,
Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika
universiteti O‘zbek tili va adabiyoti
fakulteti magistranti

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15878255>

Annotatsiya: Mazkur maqolada zamonamizning etuk shoiri O‘tkir Rahmatning Vatanni kuylovchi: “Tuproq...”, “O‘zligini ko‘rsatgaydir o‘ziga bek yurt!” kabi she‘rlari badiiy tahlilga tortilgan. Shuningdek, o‘zbek shoiri Abdulla Oripovning ijod namunalariidagi Vatan tasviri bilan qiyoslangan.

Kalit so‘zlar: lirik tur, timsol, ijod, badiiy san‘atlar, “She‘r san‘ati”

Annotatsion: In this article, the mature poet of our time, the motherland singer of acute Mercy, said: “Soil...”, “Show your own Backland!”, his poems were drawn into artistic analysis. It is also compared with the image of the motherland in the examples of creativity of the Uzbek poet Abdullah Oripov.

Key words: lyrical type, embodiment, creativity, Fine Arts, “ Art of poetry”

Аннотация: В этой статье зрелый поэт современности остроумно поет о Родине: “Земляная работа”, “Покажи свою Родину!” его стихи, такие как, были подвергнуты художественному анализу. Его также сравнивали с образом Родины в образцах творчества узбекского поэта Абдуллы Арипова.

Ключевые слова: лирический тип, эмблема, творчество, изобразительное искусство, “Искусство поэзии”

She‘riyat badiiyatga daxldor bo‘lgan, hissiyotga to‘la va dilga singib boruvchi sirli mo‘jizadir. U inson ko‘nglini o‘ziga rom etib, ruhiy va ma‘naviy ozuqa beruvchi, estetik didni shakllantiruvchi o‘ziga xos jozibadir. She‘r shoirning o‘ziga ilhom bergan vokelikka bo‘lgan faol munosabatidan bunyod bo‘ladi. She‘rda poetik obrazlarning ratsional va emotsional shakllarda ifoda etilishi she‘rning obrazliligidan kelib chiqadi.

Badiiy adabiyotda mavzu ko‘lami turli janrlarda turlicha vokea bo‘ladi. Lirik janrning epik va dramatik turlaridan farq qiluvchi jihati ijodkorning qalb kechinmalarini go‘zal bo‘yoqlar bilan tasvirlashi, badiiy obrazlarni ifodalashda emotsionallikning uyg‘unligi va ohangdorlikni yuzaga chiqaruvchi she‘riy tizimdan foydalanishidir. Lirik janrda ijod qiluvchi shoir she‘r ilmini o‘rganmasdan turib she‘riyat olamiga kira olmaydi. She‘rdagi badiiy obrazlar tasvir vositalar orqali “tiriltirilsa” asarda obrazlilikning go‘zal aksi namoyon bo‘ladi. Badiiy asar, ayniqsa, lirik asarlar shunday ta‘sirli va ishonarli bo‘lishi kerakki, kitobxon o‘qigan ondayoq o‘zini asar qahramoni sifatida ko‘ra olishi kerak. Badiiy obraz xarakteriga moslashgan holda she‘rning asosiy tendensiyasini tushuna olishi zarur. Yunon

faylasufi Aristotel (Arastu) o‘zining “She’r san’ati” deb nomlangan asarida lirik asardagi poetik obrazlari haqida quyidagilarni yozib qoldirgan:

“She’rda obrazli gaplar va taqdiralar cheklanmaydi ham, ularning chegarasi ham bo‘lmaydi. Nimaiki cheklangan bo‘lsa u yo mashhur bo‘ladi, yo bo‘lmasa u yaqin-tanish bo‘ladi. Bunda mashhur ham, tanish ham she’rda taqsiinga sazovor bo‘lmaydi, taqsiinga faqat badiiylik va ijodiylik sazovor bo‘ladi, xolos”¹. Ijodiylik va badiiy obrazlarning individuallik va umumiylik prinsiplari bog‘liqligi lirik asarning premitiv xususiyatlaridan biridir.

Timsol- poetik obrazning asarlarda umuminsoniy, milliy, individual shakllarda ko‘rinish beruvchi va *“obraz-inson-badiiylik-madaniyat”* aloqadorligida murakkab munosabatlarni ochib beruvchi tashqi dunyo manzarasining ifodasi. O‘zbek va jahon adabiyotida barcha adabiy turdagi asarlarda Vatan, Ota, Ona kabi timsollarni ulug‘lab ijodga qo‘l urmagan adib bo‘lmasa kerak. Folklorshunos olim J.Eshonqul qayd etishicha: *“ Timsol o‘zi nima? Biz biron asarni o‘qiganimizda yoki xalq ijodi namunasini tinglaganimizda gap A haqida borayotgan bo‘lsa ham, asl ma’no B ga tegishli ekanligini his etib turamiz. Biz buni istamasakda ichki tuyg‘ularimiz A aslida B ekanini takrorlaymiz. Chunki timsolni aqlimiz emas, tuyg‘ularimiz tez angelaydi. Timsol- tashqi dunyo bizning ichki dunyomizda qalbimiz va ongimizdagi aksidir. Demak, ichki dunyomizda tashqi dunyoda o‘ziga xos qabul qiluvchi xususiyat bor, tashqi dunyoni ramzlar, timsollar orqali, ya’ni o‘zicha “qayta ishlab” qabul qilishga moslashgan. Inson tug‘ilgandayoq dunyoga shunday ruhiy imkoniyat bilan kelgan. Ilk odamlar tabiat va koinot sirlarni timsollar qabul qilganlari bejiz emas”². Barcha uchun umumiy va tushunarli bo‘lgan hayotiy tushunchalar asar matnida badiiylashadi, o‘zining salmoqdor ifodasini keng doirada ifodalab keladi. Shuningdek, Vatan timsolini ham har bir ijodkor ijod namunasida turli yo‘sinlarda yoritadi, borliqning go‘zalligini poetik obrazlar yordamida harakatlantiradi.*

Taniqli adabiyotshunos Ozod Sharafiddinov Vatan to‘g‘risida quyidagilarni yozib qoldiradi:

“Umuman, Vatan o‘zi nadir? Tug‘ulib o‘sgan uyingmi? Beshikda qulog‘ingga kirgan mungli va ayni chog‘da nurli alammi? Buvingning ertaklarimi? Maktabmi?...Albatta, bularning hammasi va yana allaqancha narsalar birlashib “Vatan “ degan narsaning so‘nmas timsolini yaratsa kerak. Va yana o‘ylanman-ki, bolaning murg‘ak qalbidagi ilk bor paydo bo‘lgan Vatan timsoli qancha yorqin bo‘lmasin, hali o‘zining shakl-u shamoyilini to‘la topib ulgurmagan bo‘ladi. Vatan tuyg‘usi insonning o‘zi bilan birga o‘sib ulg‘ayadigan tuyg‘u bo‘lar ekan”³.

¹ Aristotel. She’r san’ati. G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1980. 91 bet.

² Eshonqulov J. Folklor: obraz va talqin. Qarshi, Nasaf. 2009. B.81

³ Sharafutdinov O. O‘lsam ayrilmasman quchoqlaringdan maqolasi.

Haqiqatan, Vatan tuyg‘usi inson dunyoga kelibona ona taftini ilk bor his qilgan hissiyot kabidir. Har qayerda bo‘lmasin o‘ziga chorlayveradigan, sog‘intiradigan beg‘ubor tuyg‘udir.

Ko‘plab shoirlar singari Vatanga o‘z mehr-muhabbat izhorini she‘rlarida jo qilgan shoirlarimizdan biri, yetuk adabiyot ixlosmandi O‘tkir Rahmatdir. O‘zbekistonning “sayqali ro‘yi zamini”, Samarqand viloyati Toyloq tumanining Uzun qishlog‘ida 1948 yil 15-martda tug‘ilgan shoirning “Irmoq”, ”Sog‘inch”, “Shukrona”, “Xayol ifori”, “Dilchiroq”, “Rayhon hidi” kabi she‘rlar to‘plami chop etilgan.

O‘tkir Rahmat she‘rlari samimiyligi, go‘zal tashbeh va istoiralarga boyligi bilan ajralib turadi. Shoirning ayniqsa, Vatan va tabiat mutanosibligiga bag‘ishlangan she‘rlari tasvirida rangin bo‘yoqlarning so‘zga ko‘chib o‘tishi shoir ijodiining alohida xususiyati sifatida e‘tiborni tortadi. Shoir she‘rlarida Vatanga bo‘lgan cheksiz mehr, inja kechinmalarining tabiat bilan uyg‘unlashuviga guvoh bo‘lamiz. Vatan timsolini oddiy so‘zlar bilan emas, balki obrazli tarzda, badiiy bo‘yoqlarga yo‘g‘rilgan o‘ynoqi misralarda aks ettiradi. Shoir qalbida jo‘sh urib turgan vatanparvarlik hissi, ajdodlar yodi va komil inson sifatini ulug‘lash tuyg‘usi Vatan timsoli bilan hamnafas tasvirlanadi.

Shoirning 2021 yil chop etilgan “Shaffof lahza” she‘riy to‘plamidan o‘rin olgan “Tuproq...” nomli she‘ri so‘zimizning dalilidir.

Tuproq,
Kiprigingga g‘uborlar qo‘nib,
Sho‘xlik qilib yurar hamon sabolar.
Sening quchog‘ingda tug‘ilib, unib,
Ertakka aylandi momo, bobolar⁴.

Inson fitrati tuproqdan yaratilibdiki, tug‘ilib o‘sgan Ona yurt mehrini doimo his qilib yashaydi. Bir siqim Vatan tuprog‘i har bir insonga aziz va muqaddas. Shoir Vatan obrazini yaratishda “tuproq”, “sabo”, “g‘ubor” kabi poetik unsurlar orqali bolalik kechinmalarini qayta jonlantiradi. U Vatanni “tuproq”qa mengzaydi va murojaat orqali undalma bilan boshlaydi. Bir-biriga chambarchas bog‘liq bu ikki so‘z zamirida Vatan va Ona tabiatning ajralmas hilqat ekanligini asoslab beradi. Sabo vaqt singari tez harakatga kelib, shoirning bolalik xotiralari ko‘chasiga bir nazar tashlab o‘tadi. Buyuk ajdodlarimiz qoldirgan ma‘naviy merosi ertaklar singari yosh qalblarda saqlanib kelmoqda. Shoirning lirik “men”iga Vatanning ozodligi, erki qanchalik muqaddas bo‘lsa, Ona zamin tuprog‘i ham shuncha aziz va mukarram ekanidan faxr tuyg‘usi tasvir etiladi. She‘rda aks etgan badiiy obrazlarning tasvir

⁴ O‘tkir Rahmat. Shaffof lahza: she‘rlar.-Toshkent: “Akademnashr”, 2021. 7-bet.

ob'ekti bilan uyg'unligi hamda badiiy san'atlar orqali “*tilga kirishi*” asar g'oyasiga nafosat bag'ishlaydi. She'rda Vatan timsoli ota-onaga tenglashtiriladi. Lirik shoir o'zini buyuk Vatanning asl farzandi sifatida his qiladi. So'nggi misralar esa Vatanga bo'lgan cheksiz mehr va iftixor tuyg'ularining erkin ifodalanishidan quyidagi manzaralar aks etadi.

Burro zabonimning tafti so'nmagay,
Bu hayot oftobi toki bor ekan.
Sening diydoringdan umr to'ymagay,
Bisotim, borlig'im-
Ey jonim, Vatan.

Aslini olganda har qanday asar ma'lum bir mavzuga bag'ishlanadi. Agar she'rdagi ma'no faqat birgina obyekt bilan ifodalansa, mazmun- mohiyati ham shu obyekt atrofida oydinlashadi. Aksincha, she'rning qamrovi qanchalik keng yo'naltirilgan obrazlar ham ortib boradi. Ijodkor she'rda o'zining ichki histuyg'ularini, dardini ifodalar ekan, albatta, Vatan tushunchasi bilan bog'liqlikda tasvirlaydi. She'rning g'oyasi ona tabiat yoki hayotiy kechinmalar haqida bo'lsa ham uning tag zaminida Vatan timsoli yotadi.

She'r shoirning barcha hislarini oshkor etadi. Chunki haqiqiy shoir she'rda qalbini boricha ochadi. Vatan timsolini she'rda ifoda etishda shoir badiiyat mahsuli bo'lgan xalq og'zaki ijodi namunalariga ham yuzlanadi. Folklor adabiyotidagi Alpomish, Barchinoy, Kuntug'mish kabi qahramonlar tasviri dostonlarda milliy iftixor, g'urur va jasorat ramzi sifatida ulug'lanib kelingan. O'tkir Rahmatning ko'plab she'rlarida buyuk ajdodlarni yod etish mahorati alohida o'rin tutadi. Shoirning ”O'zligini ko'rsatgaydir o'ziga bek yurt!” she'rida yurtimizda ulg'ayayotgan yoshlarning ajdodlar mardligini davom ettirayotganligini e'tirof etadi:

Barchinoylar afsonasi chinga aylanib,
Alpomishlar bo'yga yetib kelmoqda yana.
Yuksak-yuksak maqsadlari dilga joylanib,
Eng nurafshon tonglar sari yelmoqda yana.

Shoir yoshlarni yetuk farzand bo'lib yetishib chiqayotganini turli tashbehlar yordamida ifodalab beradi. Alpomishning qat'iyatliligi, mardligi yurtimiz o'g'lonlarining o'ziga xos hilqatiga, Barchinoy va Qaldirg'och obrazlarining go'zalligi, vatansevarligi esa o'zbek qizlarimizning xususiyatiga ko'chirilgan. O'tkir Rahmat ana shunday farzandlarni ozod va hurlikda katta qilayotgan Ona yurtga o'z minnatdorchiligini bildirayotgandek, go'yo.

Istiqlolning kuch-qudrati, elning duosi,
Shijoat-u qat'iy shashtni dildan atagan.

Olam aro ona yurtning yo‘qdir qiyosi,
Har farzandin e‘zozlagan jonajon Vatan!

Shoir she‘rlar ma‘nosini sodda so‘zlar bilan kitobxonga tushunarli tilda yetkazib bera oladi. Ona singari har bir farzandini birdek sevadigan Vatan jahonda tengsiz timsol sifatida gavdalantiradi. Yoshlarga madad bo‘layotgan mustaqillikning ozodlik nafasi va xalqning duosi yuksak marralarni qo‘lga kiritishga imkon yaratadi. Shoir so‘zlari bilan aytganda, yoshlar Vatan bag‘rida doimo e‘zozdadir. Ushbu she‘r yurtimiz bayrog‘ining olam aro hilpirashida va yuraklarda g‘urur bilan e‘zozlanishi quyidagi misralar bilan xulosalanadi:

Shunday yurtni ulug‘lashga baxshida umr,
Shon-sha‘nini qorachig‘day asrar har bir jon.
To bayrog‘i jahon aro bag‘ishlab surur,
Hilpiraydi yuraklarda jon O‘zbekiston!

Yuqorida tahlilga tortgan she‘rlar misolida aytishimiz mumkinki, she‘rlarda erklik, ozodlik va faxr-iftixor tuyg‘ulari oshkora ifoda etilgan. Lekin XX asr adabiyotining nazmiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, she‘rlarda ozodlikka chorlash, mustaqillik uchun kurash va ba‘zi to‘siqlar sababli aytilmagan fikrlarning shoir qalbida qolib ketganligiga guvoh bo‘lamiz.

Turli sinovlardan o‘tib o‘zbek adabiyotida munosib o‘rin egallagan Abdulla Oripovning O‘tkir Rahmat ijodi haqida bildirgan quyidagi fikrlari xarakterlidir. *”O‘tkir Rahmat kitoblarini boshidan oxirigacha o‘qib chiqsangiz, muallifning butun borlig‘i: insoniylihi, to‘g‘riso‘zligi, samimiyati, eng muhimi, toza ruhiyati namoyon bo‘ladi. She‘rlarining ohangi, obrazli qilib aytsak, kitobxonni sarosimaga solmaydi, unda soxta junbishlar uyg‘otmaydi”*⁵.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, shoir O‘tkir Rahmat ijodida Vatan timsolining go‘zal satrlarda badiiy va rang-barang bo‘yoqlarda aks etishi va asl farzand burchining ijod jarayonida ado etilayotganligiga guvoh bo‘ldik. Zero, har bir inson qalbida Vatan sog‘inchi abadiy qolajak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Eshonqulov J. Folklor: obraz va talqin. Qarshi, Nasaf. 1999.170 b.
2. Qahramonov Q.Y. Badiiy so‘z qudrati. Toshkent: Anorbooks, 2024. 334 b.
3. Abdulla Oripov. O‘zbekiston qasidasi. O‘zbekiston LKSM Markaziy Komiteti. ”Yosh gvardiya nashriyoti.-Toshkent.1972. 32 b.
4. Aristotel. She‘r san‘ati. G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1980.
5. O‘tkir Rahmat. Shaffof lahza: she‘rlar.-Toshkent: “Akademnashr”, 2021.

⁵ O‘tkir Rahmatning “Shaffof lahza” she‘riy to‘plamidan o‘rin olgan Abdulla Oripov izohi.

"TURKIY XALQLAR ADABIYOTIGA DOIR ZAMONAVIY YONDASHUVLAR: MUAMMOLAR, OMILLAR, YECHIMLAR"

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari

6. Omanova, M. A. (2023). Perfect human interpretation in alisher navoy's creation. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 11(1), 346-347.
7. Kalandarova, Dilafruz Abdujamilovna. "Research classification of Karl Reichl." *Current research journal of philological sciences* 2.11 (2021): 29-33.
8. Kadirova M.N. Improvement Of Students' Competences on Folklore Genres in Distance Learning Environment. Nizami Tashkent State Pedagogical University lecturer of the Department of Uzbek language and literature. <https://geniusjournals.org/index.php/ejlat/article/view/410>
9. Burxanova, Feruza. "Nazar Eshonqulning ilm-ma'rifat, kitobxonlikka doir qarashlari." *Konferensiyalar/ Conferences*. Vol. 1. No. 12. 2024.
10. Rajabova, Hulkar. "Interpretation of time and space in shorts (Chronotope)(On the example of the stories of the writer Shukhrat Matkarim "Yilon", "Maqar", Kholiyor Safarov "Honor and Life", "Wingless Birds", "The Saddest Joy")." *Modern Science and Research* 4.3 (2025): 1332-1340.
11. Маҳбуба Қадамбоевна Ўразбаева. АЁЛ ХАРАКТЕРИНИ ОЧИШДА БАДИИЙ НУТҚНИНГ ЎРНИ. GOLDEN BRAIN. RAIN ISSN: 2181-41 20. 23.01.10. 193-199- 6. <https://researchedu.org/index.php/goldenbrain/article/view/1179>
12. O'RAZBAYEVA Mahbuba. XX asr ozarbayjon adabiyotida Ganjaviy obrazi tasviri. "Nizomiy Ganjaviy va xamsachilik an'anasi" mavzusidagi xalqaro ilmiy anjuman materiali. 2024-yil 25-yanvar, 28-32-betlar. https://oriens.uz/media/conferencearticles/5_ORAZBAYEVA_Mahbuba_28-32.pdf.